

JADID ADABIYOTI – O‘ZBEK MILLIY UYG‘ONISH DAVRI ADABIYOTI SIFATIDA

Raximova Ro‘shana O‘lmasboy qizi

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan o‘zbek jadid adabiyotining mohiyati, g‘oyaviy yo‘nalishlari va milliy uyg‘onish jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi. Fitrat, Avloniy, Cho‘lpon va Qodiriy singari adiblar ijodida ma‘rifat, ozodlik, vatanparvarlik va milliy o‘zlik g‘oyalari yoritilgan. Jadid adabiyoti o‘zbek xalqining ma‘naviy uyg‘onishiga asos bo‘lgan muhim madaniy hodisa sifatida o‘rganiladi.

Annotation: This thesis analyzes the essence and ideological directions of Uzbek Jadid literature formed in the late 19th and early 20th centuries, as well as its role in the national awakening process. The works of Fitrat, Avloni, Cholpon, and Qodiriy reflect ideas of enlightenment, freedom, patriotism, and national identity. Jadid literature is studied as an important cultural phenomenon that laid the foundation for the spiritual revival of the Uzbek people.

Аннотация: В данной тезисе анализируется сущность и идеологические направления узбекской джадидской литературы, сформировавшейся в конце XIX – начале XX веков, а также её роль в процессе национального пробуждения. В произведениях Фитрата, Авлони, Чулпана и Кадыри отражены идеи просвещения, свободы, патриотизма и национального самосознания. Джадидская литература рассматривается как важное культурное явление, ставшее основой духовного возрождения узбекского народа.

Kalit so‘zlar: jadid adabiyoti, ma‘rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, Fitrat, Cho‘lpon, Qodiriy, Avloniy, ma‘naviyat.

Keywords: Jadid literature, enlightenment, national awakening, Fitrat, Cholpon, Qodiriy, Avloni, spirituality.

Ключевые слова: джадидская литература, просвещение, национальное пробуждение, Фитрат, Чулпан, Кадыри, Авлони, духовность.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yuz bergan siyosiy hamda madaniy o‘zgarishlar natijasida milliy uyg‘onish harakati – jadidchilik vujudga keldi. Bu harakatning asosiy maqsadi xalqni jaholatdan chiqarish, ilm-fan va ma‘rifat asosida taraqqiyot sari yetaklash edi. Adabiyot bu jarayonning eng faol ta‘sir etuvchi sohasi bo‘lib xizmat qildi. Shu sababdan ham jadid adabiyoti o‘zbek milliy uyg‘onishining badiiy ifodasi sifatida shakllandi.

Jadid adabiyoti — bu nafaqat yangi adabiy maktab, balki butun xalq tafakkurining yangilanish harakati edi. Mustamlaka davrida har qanday milliy harakat kuch bilan

bostirilgani sabab jadidlar deyarli unutilayozgan mustaqillik g‘oyalarini xalqqa adabiyot orqali eslatishni va shu yo‘l orqali birlashishni maqsad qildilar. Ularning nazarida adabiyot xalqni uyg‘otish, ma’naviy qaramlikdan xalos etish quroli bo‘lishi kerak edi. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul bu borada jadidchilikni millatning o‘zligini anglash harakati sifatida va adabiyotni esa uning yuragi deya ta’riflaydi. Bu fikr shuni ko‘rsatadiki, jadid adabiyoti ijtimoiy ongni uyg‘otuvchi, milliy o‘zlikni qayta tiklovchi kuch sifatida shakllangan. O‘zini jadid deb atagan har bir ijodkor o‘z uslubida mohirona ijod qilib yuksak saviyali asarlar yarata oldi. Xususan, Abdulla Avloniy jadidchilik adabiyotining poydevorini qo‘ygan ma’rifatparvarlardan biridir. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari o‘z davri uchun axloq, tarbiya va ma’naviyat bo‘yicha dasturiy qo‘llanma bo‘lgan. Avloniy bu asari orqali xalqni ilmga, vatanga muhabbatda sobitqadamlikka, kamtarlikka, halollikka da’vat etadi. U “tarbiya”ni millatning kelajagi bilan bevosita bog‘lab, hozirgi kunda ko‘pchilikka yod bo‘lib ketgan: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir “ jumlasini o‘z ijodining shiori qilib olgan edi desak mubolag‘a emas.

Jadid adabiyoti va falsafasining eng yirik nazariyotchisi sifatida Abdurauf Fitrat ijodiga nazar tashlasak, uning „Munozara“ va „Sayyohi hindi“ asarlari XX asr boshlarida milliy uyg‘onish harakati uchun dastur-ul amal bo‘lib xizmat qilgan desa bo‘ladi va ayni shu asarlar orqali yoshlar dunyoqarashining o‘zgarishi va ularning jadidlar safiga kelib qo‘shilishi kuchaygan. Keyinchalik bu asarlar orqali Fitrat millatchilikda ayblangan. Fitratning fikricha, millat taraqqiyoti uchun, avvalo, inson tafakkuri yangilanishi kerak.

Cho‘lpon jadid adabiyotining lirika va falsafani uyg‘unlashtirgan ijodkoridir. Uning she‘rlari o‘zbek she‘riyatiga yangi ifoda, yangi mushohada olib kirdi. Xususan, “Buloqlar” to‘plamidagi she‘rlari millatni erkinlik sari chorlaydi. Cho‘lpon she‘riyatida millat, erk, ozodlik tushunchalari shaxs erkinligi bilan chambarchas bog‘langan. Uning ijodini o‘rganish natijasida yozilgan “Cho‘lponni anglash “ risolasida tanqidchi olim Ozod Sharafiddinov shoir ijodining estetik-siyosiy jihatlarini, uning asarlariga davr munosabati va sovet davridagi bahslarni teran tahlilga oladi.

Abdulla Qodiriy jadid adabiyotida tarixiy roman ustasi sifatida tilga olinadi. Uning “O‘tkan kunlar” asari milliy uyg‘onish ruhini tarixiy shaklda ifodalaydi. Bu yondashuv Qodiriyning tarixga faqat badiiy material sifatida emas, balki milliy ongni tiklovchi vosita sifatida qaraganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, Qodiriy faqatgina tarixiy romanlar ustasigina bo‘lib qolmay, adabiyotshunos olim sifatida ham bir qancha fikrlarini maqolalarida yoritgan, jumladan, adabiyot haqidagi maqolasida : “ So‘z so‘ylashda va jumla tuzishda uzoq andisha kerak. Tuzilgan jumlaning yozuvchining o‘zigina tushunib, boshqalarning tushunmasligi kata ayb. Asli yozuvchilik aytmoqchi

bo‘lgan fikrni hammaga barobar anglata bilishda , oraga anglashilmovchilik solmaslikdadir” – degan fikrlarni berib o‘tadi.

Jadid adabiyoti – o‘zbek milliy uyg‘onish harakatining adabiy shakldagi davomi hisoblanadi. U o‘zigacha bo‘lgan o‘zbek adabiyoti tilini badiiy-uslubiy jihatdan yangilab, nasr va she‘riyatda xalq tiliga yaqin, sodda va ravon uslub shakllantira oldi. Shoirilar o‘z fikrlarini xalq ruhiga yaqin tilda bayon etishdi, bu esa o‘zbek adabiyotining xalqchilligini kuchaytirdi. Jadid adabiyoti o‘zbek milliy uyg‘onishining adabiy ifodasidir. U xalqni ma‘rifat, ilm va erkinlik sari chorlagan, milliy tafakkur evolyutsiyasida yangi bosqich boshlab bergan. Fitrat, Avloniy, Cho‘lpon va Qodiriy kabi ko‘plab iste‘dodli ijodkorlar orqali jadid adabiyoti millatning ma‘naviy uyg‘onish tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Bu adabiy meros bugun ham yosh avlodni vatanparvarlik, erkin fikrlash va ma‘naviy yuksalish ruhida tarbiyalamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma‘naviyat, 1992.
2. Fitrat, A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 2000.
3. Cho‘lpon, A. Buloqlar. – Toshkent: Yozuvchi, 1991.
4. Qodiriy, A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1983.
5. Haqqul, I. Jadidchilik – ma‘rifat va ma‘naviyat harakati. – Toshkent, 2010.
6. O. Sharafiddinov. Cho‘lponni anglash.—Toshkent: “Yozuvchi” nashriyoti, 1994.